

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№4

2025
APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE


Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
535 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modelashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevd Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida	268
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna, Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	
Tabiiy va sun'iy tolalar sanoatini diversifikatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish.....	325
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B segmentida omnichannel marketing strategiyalarining qo'llanishi	331
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	338
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	343
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	
Yangi O'zbekiston savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida xizmatlar eksportining ahamiyati	350
Eshanqulov Baxodir Abduraxmon o'g'li	
Budjet daromadlarini shakllantirishda yirik soliq to'lovchilarning tutgan o'rni	357
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
Davlat maqsadli jamg'armalari resurslarini boshqarish va samarali foydalanish yo'nalishlari.....	361
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari amaliy holati, sohani rivojlantirish asoslari	365
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy instrumentlarning hisobi va audit masalalari	371
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha zamonaviy tendensiyalar	375
Latipova Lola Ilhomovna	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish orqali soliq to'lovchilar faoliyatini muvofiqlashtirish	380
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidligini oshirishning nazariy asoslari	385
Poyonov Bobir Bekturod o'g'li	



The importance of implementing international accounting standards in uzbekistan	393
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Ikki o'lchovli geofizik signallarni raqamli ishlashda XAAR tez o'zgartirish algoritmlari.....	403
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich, Mullajonov Baxodirjon Arabboyevich	
Turizm infratuzilmasi va xizmat sifatini oshirish maqsadida yangi turistik yo'nalishlar va imkoniyatlar yaratish chora tadbirlari.....	410
Sindarov Sherzod Egamberdiyevich, Xakimov Zoxid Norbo'tayevich, Yusupov Muxammadali Soxib o'g'li, Ro'zimatov Sanjarbek Qosimjon o'g'li	
Korporativ boshqaruvda budjetdan tashqari mablag'lar samaradorligini oshirish	420
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
Enhancing labor productivity in industrial enterprises of developed countries: experiences and strategies	426
Abduxakimova Farangiz Sidikjon kizi	
Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali "Olmaliq KMK" ajda innovatsion loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari.....	434
Inamova Farida Usmanjanovna	
Methodological problems of accounting of fixed assets	439
Kholbekov Rasul Olimovich	
Необходимость платежной системы.....	446
Сайфиддинов Илхом Файзиддинович	
Зеленое IPO как новый инструмент финансирования	451
Шахзод Сайдуллаев	
Инструменты фондового рынка в международной практике повышения инвестиционной привлекательности бизнеса	459
Юлдуз Усманова	
Модели устойчивого развития туризма: международный опыт и возможности адаптации в узбекистане.....	471
Сальникова Елена Александровна	
Внедрение антикоррупционных стандартов ISO в узбекистане	478
Исмаилов Баходир Исламович, Зокиров Саидакмал Баходир угли	
Global moliyaviy markazlarni baholash mexanizmi	483
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Трансформация банковского сектора узбекистана под влиянием цифровых технологий.....	488
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич	
Uy-joy fondini qulayligini modernizatsiya va rekonstruksiya orqali oshirish imkoniyatlari.....	493
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
Влияние технологии блокчейн на банковскую сферу	500
Амонова Хафиза	
Buxoro viloyatida suv tanqisligi sharoitida resurs tejankor agrotexnologiyalar asosida agrobiznesni barqaror rivojlantirish masalalari	504
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Saidova Firuza Kamolovna	
O'zbekiston respublikasida demografik dividend olish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish metodlari	510
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari	515
Sharoxmatov Abdurahim Abdulamitovich	



Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiya jalb etish-taraqqiyot garovi.....	522
Karimova Komila Daniyarovna	
Islomiy banklar tizimi va ularning faoliyatini o'zbekistonda rivojlantirish istiqbollari.....	529
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	



ISLOMIY BANKLAR TIZIMI VA ULARNING FAOLIYATINI O‘ZBEKISTONDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI



Dilovarxo‘jayeva Dilnozaxon Shavkatxo‘ja qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti
ORCID: 0009-0003-1886-8262

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda islomiy banklar tizimining shakllanishi, ularning iqtisodiyotdagi o‘rni va moliyaviy xizmatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda islomiy moliyalashtirishning asosiy tamoyillari, foizsiz kreditlash, sheriklik asosida investitsiya yo‘nalishlari va garovsiz bitimlar amaliyoti yoritiladi. Mualliflar mamlakatdagi amaldagi banklar faoliyatini islomiy moliya tamoyillari bilan taqqoslab, ularning joriy etilishi istiqbollarini ko‘rsatib berishgan. Metodologiya sifatida normativ-huquqiy tahlil va amaliy bank faoliyati misollari qo‘llanilgan.

Kalit so‘zlar: islomiy banklar, islomiy moliyalashtirish, foizsiz kredit, mudoraba, musharaka, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract: This article explores the development of the Islamic banking system in Uzbekistan, highlighting its role in the national economy and financial services. The study outlines the core principles of Islamic finance, including interest-free lending, profit-and-loss sharing models, and non-collateral transactions. The paper compares conventional banking practices with Islamic finance standards and discusses the prospects for integrating Sharia-compliant models into the country's financial system. The research is based on legal-normative analysis and practical examples from local banking operations.

Keywords: Islamic banks, Islamic finance, interest-free loan, mudarabah, musharakah, economic stability.

Аннотация: В статье исследуется формирование системы исламских банков в Узбекистане, их роль в национальной экономике и предоставляемые финансовые услуги. Раскрываются основные принципы исламского финансирования: кредитование без процентов, модели разделения прибыли и убытков, сделки без залога. Представлено сравнение традиционной банковской деятельности с исламскими финансовыми стандартами, а также перспективы внедрения шариатского банкинга в национальную финансовую систему. Методологическая основа – нормативно-правовой анализ и практический обзор деятельности местных банков.

Ключевые слова: исламские банки, исламское финансирование, беспроцентный кредит, мудараба, мушарака, экономическая стабильность.

KIRISH

Global moliya bozori jadal rivojlanayotgan bir davrda ushbu sohani muntazam ravishda isloh etish zarurati dolzarb masalaga aylanmoqda. Xususan, bugungi kunda iqtisodiy munosabatlarni diversifikatsiya qilish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda yangi alternativ moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda islomiy moliya tizimini shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlari dolzarb yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

Islomiy banklar Islom huquqining moliyaviy prinsiplariga asoslangan bo'lib, ular riba – ya'ni foiz olish va berishni qat'iy taqiqlaydi. Bu tizim islom moliyasi me'yorlariga muvofiq holda, moliyaviy faoliyatda halollik, adolat va o'zaro manfaatdorlikni ta'minlashni ko'zda tutadi. An'anaviy bank tizimidan farqli ravishda, islomiy banklar kreditlashda foiz stavkalariga emas, balki foyda va zararni o'zaro bo'lishishga asoslangan vositalardan foydalanadilar. Ular mijozlar bilan "murabaha" (savdo bitimi asosida moliyalashtirish), "ijara" (ijaraga berish) va "musharaka" (hamkorlik asosidagi investitsiya) kabi shartnomalar orqali ishlaydilar.

Bugungi kunda islomiy banklar faqat musulmon davlatlardagina emas, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy afzalliklaridan biri – moliyaviy vositalarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham foydali va barqaror bo'lishini ta'minlashga intilishi, halol va ijtimoiy mas'uliyatli tadbirkorlikni rag'batlantirishidir. Shu bois, O'zbekistonda ushbu tizimni joriy etishning nazariy asoslarini o'rganish va amaliyotdagi imkoniyatlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda Islomiy taraqqiyot banki (ITB) vakolatxonasi rahbari Husan Hasanovning fikricha, mamlakatda islomiy moliya va bankchilikka bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Biroq bu yo'nalishning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan huquqiy asoslar va malakali kadrlar yetarli emas. Shuningdek, aholining islomiy moliyalashtirish bo'yicha bilim va savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Saudiya Arabistonidagi Madina Islom universitetining magistranti Mahmud Usmon islomiy banklar faoliyatini tartibga soluvchi yangi qonunlar zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, amaldagi qonun loyihasi mavjud bo'lsa-da, unga bir qator o'zgartishlar kiritish talab etiladi. Jumladan, litsenziya berish masalasida Markaziy bank tarkibida islomiy moliyaviy qoidalarga muvofiqlikni baholay oladigan yetarli darajadagi kadrlar va aniq me'yoriy asoslar mavjud emas. Bundan tashqari, mazkur tartib ayrim holatlarda islomiy moliya institutlarining mustaqilligiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aytiladi, bu esa kelgusida teng raqobat muhitini ta'minlashda qo'shimcha mexanizmlarni ishlab chiqishni talab qiladi. [3].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Pul-kredit siyosati departamenti direktori Nodirbek Ochilov esa islomiy moliyani iqtisodiy muammolarga to'laqonli yechim emas, balki mavjud moliyaviy tizim ichida alternativ vosita sifatida ko'rish mumkinligini bildiradi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda islomiy banklar faoliyatining asosiy tamoyillari, ularning tashkiliy-huquqiy ko'rinishlari hamda mavjud amaliy modellar o'rganildi. Shuningdek, sohadagi yetakchi mutaxassislar, ilmiy izlanuvchilar va amaliyotchi ekspertlar tomonidan bildirilgan fikrlar, tahliliy xulosalar asosida ilmiy-nazariy yondashuv shakllantirildi. Metod sifatida taqqoslovchi tahlil, huquqiy-huquqshunoslik manbalari sharhi hamda kontent-analiz usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Islomiy banklar tizimi – foizsiz moliya tamoyillariga asoslangan va ushbu qoidalarga mos tarzda faoliyat yuritadigan bank tizimidir. Ushbu tizimda moliyaviy operatsiyalar, jumladan, kreditlash yoki investitsiyalar foyda va zarar ulushi asosida amalga oshiriladi. Asosiy moliyaviy vositalarga



“murabaha” (tovarni ustama bilan sotish), “musharaka” (hamkorlik asosida investitsiya), “ijara” (ijaraga berish) va boshqa shartnomaviy mexanizmlar kiradi.

O'zbekistonda islomiy bank tizimining rivojlanish istiqbollari:

1. Yuqori talab mavjudligi. O'zbekiston aholisining katta qismi musulmonlardan iborat bo'lib, ular orasida foizsiz moliyaviy xizmatlarga ehtiyoj tobora ortmoqda. Bu talab islomiy bank xizmatlari rivojlanishiga ijobiy turtki bo'lishi mumkin.

2. Huquqiy baza shakllanmoqda. So'nggi yillarda hukumat tomonidan islomiy moliya tizimini joriy etishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2024-yilda “Islomiy moliya” konsepsiyasi ishlab chiqildi va bir nechta qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

3. Xalqaro hamkorlik imkoniyatlari. O'zbekiston xalqaro islomiy moliya institutlari, xususan, Islomiy taraqqiyot banki bilan hamkorlikni kengaytirmoqda. Bu tajriba almashinuvi, texnologiyalar transferi va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kirib kelishiga xizmat qilmoqda.

4. Barqaror moliyaviy model. Islomiy moliya spekulyativ operatsiyalarni cheklab, real iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalarni rag'batlantiradi. Bu esa mamlakat iqtisodiy barqarorligiga xizmat qilishi mumkin.

5. Regulyatorlar va banklarning tayyorgarligi. Tijorat banklari, ayniqsa yirik moliyaviy institutlar, islomiy moliyaviy xizmatlarni joriy etish yo'lida tahliliy va tashkiliy tadbirlarni boshlab yuborgan. Mazkur yo'nalishda bir nechta pilot loyihalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning iqtisodiy o'sish sur'atlari islomiy banklar uchun qulay makroiqtisodiy muhit yaratadi. So'nggi yillarda sanoat va xizmatlar sektori jadallik bilan rivojlanmoqda, bu esa moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Islom banklari ayniqsa qishloq xo'jaligi, sanoat, hamda kichik va o'rta biznes sektorlarida sarmoyalarni jalb etish hamda kreditlashni faollashtirishi mumkin.

Islom banklarining samarali faoliyat yuritishi uchun iqtisodiy barqarorlik, past inflyatsiya darajasi va muvozanatli pul-kredit siyosati muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosatining samaradorligi islomiy bank operatsiyalarining moslashuvchanligini ta'minlashi mumkin. So'nggi yillarda inflyatsiyani pasaytirish va valyuta kursini barqarorlashtirishga qaratilgan davlat siyosati islomiy banklar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Islom banklarining barqaror rivojlanishi uchun rivojlangan va diversifikatsiyalashgan moliyaviy bozor zarur. O'zbekistonda moliya sektori rivojlanayotgan bo'lishiga qaramay, hali to'liq global standartlarga javob bermaydi. Biroq islomiy moliyaga oid normativ-huquqiy baza shakllanayotgani, islomiy moliya institutlari faoliyati uchun maxsus tartib va qoidalarning ishlab chiqilayotgani bu sohaning taraqqiyotiga zamin yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli¹ Farmonida bank tizimidagi islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozorini kengaytirish va raqobat muhitini rivojlantirish doirasida kamida uchta tijorat bankida islomiy moliya me'zonlari va tartiblarini joriy etish hamda islomiy moliyaning qonuniy asoslarini shakllantirish vazifalari belgilangan [5].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yildagi hisobotiga ko'ra, Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda mamlakat bank tizimida islomiy moliyalashtirish xizmatlarini joriy etish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistondagi 12 ta bank, jumladan, “Agrobank”, “O'zsanoatqurilishbank”, “Mikrokreditbank”, “Ipak yo'li” banki va boshqalar Islomiy korporatsiya kredit liniyalari orqali murobaha xizmatlarini ko'rsatmoqda. “Trastbank” qoshidagi Trast Muamalat sho'ba korxonasi esa islomiy lizing xizmatlarini taqdim etmoqda [6].

O'zbekistonda islomiy banklashuv va moliyaviy xizmatlar tizimining keng joriy etilishi moliyalashtirish mexanizmlarining yanada rivojlanishiga, ayniqsa kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, real sektorni faollashtirish va ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu bilan birga, muqobil moliyaviy mahsulotlarning paydo bo'lishi aholining moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmonida: <https://lex.uz/docs/-6600413>

Islomiy banklar bilan an'anaviy banklar o'rtasidagi asosiy farq – ularning asoslanadigan tamoyillaridir. An'anaviy banklar insonlar tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy qoidalar asosida faoliyat yuritisa, islomiy banklar islomiy qonunlariga muvofiq ishlaydi. Shu sababli, mahsulot va xizmatlar, shuningdek, operatsion faoliyatning barcha jihatlari islom moliyasi talablari bilan belgilangan bo'lib, bu jihat islomiy banklarni an'anaviylardan ajratib turadi.

Islom banklari foyda ko'ruvchi tashkilotlar hisoblangan bo'lsa-da, ular Islom moliyasi qoidalari bilan murosaga bormaydi. Bunday banklarda foiz asosida kreditlash mavjud emas; mablag'lar tovar va xizmatlar asosida, tavakkal asosida sarmoya shaklida yo'naltiriladi, foyda esa oldindan kafolatlanmaydi [7].

Islom banklari foiz (riba) asosida mukofot olish, investitsiya depozitlari bo'yicha daromad kafolatlash, tamaki, alkogol, qurol-yarog', qimor o'yinlari bilan bog'liq faoliyatlarni moliyalashtirishni taqiqlaydi. Shu bilan birga, ular Islom moliya tamoyillari asosida harakat qilib, islom moliyasiga zid faoliyatlarni moliyalashtirishga yo'l qo'ymaydi. Mablag'lar jismoniy va yuridik shaxslardan jalb qilinadi hamda real sektor subyektlariga investitsiya sifatida yo'naltiriladi. Islom banklari an'anaviy G'arb banklaridagi moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajarsa-da, ular depozitlarga foiz to'lamaydi [8].

Islomiy banklarda quyidagi asosiy moliyaviy vositalar qo'llaniladi:

- musharaka,
- mudaraba,
- ijara,
- istisna,
- salam,
- murabaha.

XULOSA VA TAKLIFLAR


O'zbekistonda islomiy banklar tizimi hali rivojlanishning dastlabki bosqichida bo'lsa-da, ushbu sohaning kengayishi va barqaror shakllanishi uchun salmoqli imkoniyatlar mavjud. Aholining diniy e'tiqodiga mos, foizsiz moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji, hukumat tomonidan sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi, shuningdek, barqaror moliyaviy modelga intilish islomiy banklar tizimini istiqbolli yo'nalish sifatida namoyon qilmoqda. Biroq, tizimning to'laqonli va samarali faoliyat yuritishi uchun huquqiy, institutsional hamda texnik infratuzilmaning mustahkamlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, birinchi navbatda, islomiy moliya institutlari faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonunning qabul qilinishi, foizsiz moliyalashtirishga oid talablarga mos reglamentlarning ishlab chiqilishi talab etiladi. Bunga parallel ravishda, islomiy bank ishi bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida oliy o'quv yurtlarida maxsus ta'lim yo'nalishlarini tashkil etish, chet eldagi ilg'or tajribaga ega ekspertlar bilan doimiy ilmiy-amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish ham alohida e'tiborni talab qiladi. Islomiy moliyaviy mahsulotlarning mazmuni va afzalliklarini keng jamoatchilikka tushuntirish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali samarali targ'ibot olib borish lozim. Shu bilan birga, tijorat banklarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatini rag'batlantirish uchun soliq va regulyatoriy imtiyozlar taqdim etilishi, ayrim shahar yoki hududlarda to'liq islomiy moliya xizmatlarini joriy qilish bo'yicha pilot loyihalarni amalga oshirish amaliy jihatdan foydali bo'ladi. Xalqaro tajribani chuqur o'rganish va uni lokal sharoitga moslashtirish, xususan, Islomiy taraqqiyot banki, AAOIFI va IFSB kabi tashkilotlar bilan texnik va institutsional hamkorlikni kengaytirish O'zbekistonda islomiy banklar tizimining jadal rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-81-sonli Farmoni.
2. https://kun.uz/news/2019/12/12/hasan-hasanov-ozbekistonda-islomiy-moliya-va-bankchilikka-bolgan-qiziqish-ortib-bormoqda?utm_source=chatgpt.com



3. https://uz24.uz/uz/articles/islamic-finance-5-20?utm_source=chatgpt.com
4. https://daryo.uz/2022/06/28/bizda-islomiy-banklar-haqida-miflar-yaratilgan-iqtisodchilar-islomiy-bank-tizimi-iqtisodiy-muammolarga-yechim-bolmasligini-aytdi?utm_source=chatgpt.com
5. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
6. <https://cbu.uz/upload/medialibrary/c2e/jcu9sa4tbawr6xfqqnyn4ivpbc7s2l1/Yillik-hisobot-2024.pdf>
7. Akhmadjonov O. va boshq. Islom banki va an'anaviy banklar o'rtasidagi farqlar // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – T. 2. – № 10–2. – B. 755–761.
8. Chernoskutov F. A. Islamskiy banking: osobennosti i perspektivy vnedreniya v Rossii // Vesennie dni nauki: sbornik dokladov Mezhdunarodnoy konferentsii studentov i molodyx uchenyx. – Ekaterinburg, 2023. – Izdatel'stvo Izdatel'skiy Dom «Ajur», 2023. – B. 1246–1249.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100